

“TASDIQLAYMAN”

Davlat aktivlarini boshqarish
agentligi direktori,
Komissiya raisi

_____ A. Ortikov
2023-yil 30-noyabr

**Davlat ishtirokidagi korxonalarning kuzatuv kengashi tarkibiga davlat ulushi
bo'yicha nomzodlarni tanlab olish komissiyasi yig'ilishining
01/03-09-3/4-sonli BAYONI**

2023-yil 30-noyabr

Toshkent shahri

Raislik qildi: A. Ortikov — Davlat aktiv agentligi direktori - Komissiya raisi

Qatnashdilar: N. Xusanov — Direktorning birinchi o'rinbosari - Komissiya raisi o'rinbosari
J. Nasirov — Direktorning xorijiy maslahatchisi - Komissiya a'zosi
S. Qurbonaliyev — Davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ munosabatlarni ta'minlash departamenti boshlig'i o'rinbosari - Komissiya a'zosi
Sh. Oxunov — Davlat aktivlarini xususiylashtirishga tayyorlash va xususiylashtirish departamenti boshlig'i - Komissiya a'zosi
U. Gazyev — Shartnomaviy-huquqiy munosabatlar va da'vo ishlarini yuritish bo'yicha yuridik boshqarma boshlig'i - Komissiya a'zosi
Sh. Sofarov — Davlat ishtirokidagi korxonalarning boshqaruv va nazorat organlarini shakllantirish bo'limi boshlig'i - Komissiya kotibi

KUN TARTIBI:

Davlat aktiv agentligi ishtirokidagi korxonalarning kuzatuv kengashi tarkibiga davlat ulushi bo'yicha nomzodlarni ko'rsatish uchun e'lon qilingan tanlov natijalari va nomzodlarni tanlash to'g'risida

(Ortikov, Xusanov, Nasirov, Oxunov, Gazyev, Qurbonaliyev, Sofarov, Ortikov)

Komissiyaning 2023-yil 19-apreldagi 01/03-08-1/1-son qarori bilan 2023-yil 20-aprel kuni Davlat aktiv agentligi ishtirokidagi 61 ta korxonalarning davlat ulushi

bo'yicha 306 nafar a'zolik o'rinlariga kuzatuv kengashi tarkibiga nomzodlarni ko'rsatish uchun veb-portal (www.cns.davaktiv.uz) orqali tanlov e'lon qilindi.

Keyinchalik, Komissiyaning 2023-yil 24-maydagi 01/03-09-3/2-son va 24-iyuldagi 01/03-09-3/3-son qarorlari bilan:

39 ta korxona bo'yicha 204 nafar nomzodlar tanlab olinib, davlat ulushi nomidan kuzatuv kengashi tarkibiga kiritish bo'yicha ko'rsatmalar yuborildi;

1 ta korxona, ya'ni "O'rta osiyo trans" AJ ustav kapitalidagi davlat ulushi sotilganligi munosabati bilan uning kuzatuv kengashi tarkibiga 5 nafar nomzodlarni tanlab olish bo'yicha shakllantirilgan korxonalar ro'yxatidan chiqarildi.

21 ta korxonaning 97 nafar a'zolik o'rinlariga yetarlicha va malakali nomzodlardan arizalar kelib tushmaganligi sababli tanlov muddati uzaytirildi.

3 ta korxonalarning 8 nafar a'zolik o'rinlariga qo'shimcha tanlov e'lon qilindi.

Bugungi kunda, tanlov muddati uzaytirilgan va qo'shimcha tanlov e'lon qilingan 24 ta korxonadan 19 tasining 82 nafar a'zolik o'rinlariga 296 nafar talabgorlardan tanlash imkoniyati yetarlicha arizalar kelib tushgan.

Biroq, 19 ta korxonaning 82 nafar a'zolik o'rinlariga ariza topshirgan 296 nafar nomzodlarning kasbiy va malakaviy faoliyati tanlov komissiyasi tomonidan o'rganib chiqilganda, 3 ta korxona, ya'ni, "Yoshlar teleradiokanali" AJ (18 nafar), "Ohangaronshifer" AJ (6 nafar) va "O'zagroservis" AJ (26 nafar)ning faoliyat yo'nalishi va xususiyatlari bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega malakali nomzodlar yetarli emasligi hamda 1 ta korxona, ya'ni, "O'zsuvloyiha" AJ (13 nafar) ustav kapitalidagi davlat ulushi "O'zbekgidroenergo" AJ ustav kapitaliga berilganligi ma'lum bo'ldi.

Shunga ko'ra, tanlov komissiyasi tomonidan yuqorida nomi keltirilgan 3 ta korxonaning 11 nafar a'zolik o'rinlariga tanlov muddatini uzaytirish va 1 ta korxona, ya'ni, "O'zsuvloyiha" AJ ustav kapitalidagi davlat ulushi "O'zbekgidroenergo" AJ ustav kapitaliga berilganligi sababli tanlov e'lon qilingan korxonalar ro'yxatidan chiqarish hamda 15 ta korxonaning kuzatuv kengashi a'zolik o'rinlariga 233 nafar talabgorlardan malakali nomzodlarni tanlab olish lozim deb topildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan, Komissiya **QAROR QILDI:**

1. Quyidagilar:

a) "Davlat mulkini boshqarish to'g'risida"gi Qonunining 44-moddasiga ko'ra, davlat ishtirokidagi korxonalarning kuzatuv kengashi a'ziligiga davlat ulushi bo'yicha nomzod tegishincha Davaktiv agentligi, maxsus vakolatli davlat organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan tuzilgan tanlov komissiyasi tomonidan tanlanishi belgilanganligi;

b) Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-noyabrdagi 647-son qarori ilovasi bilan tasdiqlangan Nizomning 28-bandida, kuzatuv kengashi tarkibida bo'sh a'zolik o'rinlarining yuzaga kelishi natijasida kuzatuv kengashi majlislarida kvorum yig'ilmasa, shuningdek korxona faoliyati uchun zarur hamda kechiktirib bo'lmaydigan qarorlarni, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi topshiriqlari ijrosini tashkil etish bilan bog'liq qarorlarni qabul qilish zaruriyati yuzaga kelgan taqdirda, tegishli nomzod saralab olingunga qadar kuzatuv kengashi tarkibiga vakolatli davlat organi tomonidan Davaktiv agentligi bilan kelishgan holda nomzod kiritilishiga, istisno tariqasida yo'l qo'yilishi belgilanganligi;

Nizom talablariga ko'ra, malaka talablariga mos kelmaydigan talabgorlar kuzatuv kengashi a'zoliciga nomzod bo'la olmasligi ko'rsatib o'tilganligi;

d) Davaktiv agentligi ishtirokidagi korxonalarning kuzatuv kengashi tarkibiga nomzodlarni ko'rsatish uchun veb-portal (www.cns.davaktiv.uz) orqali tanlov e'lon qilinganligi hamda 30 kun davomida keng jamoatchilik OAV va televideniya orqali xabardor qilib borilganligi, jumladan Davaktiv agentligining rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali keng yoritib borilganligi;

e) mazkur tanlovlarda ishtirok etish uchun 24 ta korxonalarning davlat ulushi bo'yicha 105 nafar a'zolik o'rinlariga jami 418 nafar talabgorlardan ariza kelib tushganligi, shundan 83 nafari malaka talablariga mos kelmaganligi sababli rad etilganligi hamda 335 nafari malaka talablariga mos kelganligi sababli nomzod sifatida qabul qilinganligi;

f) malaka talablariga mos kelgan 335 nafar nomzodlardan:

233 nafar nomzodlar 1-ilovaga muvofiq 15 ta korxonalarning 66 nafar a'zolik o'rinlariga ariza topshirganligi, har bir a'zolik o'rniga kamida 2 nafar nomzod ishtirok etayotganligi sababli tanlab olish imkoniyati mavjudligi va 168 nafar qisqa ro'yxat (short list) 2-ilovaga muvofiq shakllantirilganligi, qisqa ro'yxat (short list) ichidan 12 nafar nomzodlar 3-ilovaga muvofiq muqaddam davlat ulushi bo'yicha korxonalar kuzatuv kengashi tarkibiga taklif etilmaganligi yoki suhbat o'tkazilmaganligini inobatga olib, suhbat jarayoniga jalb etilganligi;

39 nafar nomzodlar 5 ta korxonalarning 23 nafar a'zolik o'rinlariga ariza topshirganligi, biroq har bir a'zolik o'rniga kamida 2 nafar nomzod ishtirok etmayotganligi, shuningdek yuqorida nomi keltirilgan 3 ta korxonaning 13 nafar a'zolik o'rinlariga ushbu korxonalarning faoliyat yo'nalishi va xususiyatlari bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega malakali nomzodlar yetarli emasligi hamda 1 ta korxona ya'ni, "O'zsuvloyiha" AJ (3 nafar) ustav kapitalidagi davlat ulushi "O'zbekgidroenergo" AJ ustav kapitaliga berilganligi sababli tanlab olish imkoniyati mavjud emasligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Davlat ishtirokidagi 15 ta korxonalarning 66 nafar a'zolik o'rinlariga davlat ulushi bo'yicha nomzodlarni ko'rsatish uchun baholash ballari, suhbat natijalari va

kuzatuv kengashidagi faoliyatidagi tajribasiga ko'ra saralab olingan 58 nafar nomzodlar g'olib deb topilsin. Bunda, korxonalarning faoliyat yo'nalishi va xususiyatlaridan kelib chiqib, malakali nomzodlar saralab olingunga qadar quyida keltirilgan 8 nafar nomzodlar davlat ulushi bo'yicha tavsiya etilsin hamda jami 66 nafar nomzodlar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin:

1) "O'zaeronavigatsiya markazi" DUK bo'yicha Transport sohasi tizimidagi malakali nomzodlar ishtirok etmaganligi sababli Transport vazirligi boshqarma boshlig'i Nazarov Jamoliddin Xusanboyevich;

2) "Paxtasanoat ilmiy markazi" AJ bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Abduraxmonov Ibroxim Yulchiyevichga bir qator topshiriqlar berilganligi, u Paxtachilik ilmiy kengashi raisi ekanligi va korxona paxtachilik yo'nalishidagi ilmiy tadqiqot instituti hisoblanishi sababli Qishloq xo'jaligi vaziri Abduraxmonov Ibroxim Yulchiyevich;

3) "Surxonoziqovqatsanoati" AJ bo'yicha korxona joylashgan hududdan malakali nomzodlar qatnashmaganligini inobatga olib, Davaktiv agentligi Surxondaryo viloyat hududiy boshqarma boshlig'i o'rinbosari Xalbayev To'ramurod Jaylovich;

4) "Ustyurt Qidiruv-Burgulash Boshqarmasi" MChJ bo'yicha korxona joylashgan hududdan malakali nomzodlar qatnashmaganligini inobatga olib, Davaktiv agentligi Qoraqolpog'iston Respublikasi hududiy boshqarmasi boshlig'i Radjapov Maxsud Ermakovich;

5) "Toshuyjoyliti" AJ bo'yicha Qurilish va loyiha yo'nalishi bo'yicha malakali nomzodlar ariza topshirmaganligini inobatga olib, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi Markazi direktori o'rinbosari Iskandarov Erkin Bo'riyevich;

6) "Toshkent traktor zavodi" MChJ faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha Hukumat tomonidan berilayotgan topshiriqlar ijrosini zudlik bilan ta'minlash maqsadida, Davaktiv agentligi direktori o'rinbosari Miraliyev Alisher Erkinovich;

7) "Navoiy erkin iqtisodiy zonasi direksiyasi" AJ faoliyat yo'nalishi va xususiyatlarini inobatga olib, Vazirlar Mahkamasi bosh mutaxassisi Mahkamov Otabek Muxammadjonovich;

8) "Sharq" AJ bo'yicha ko'chirish ishlari va Hukumat topshiriqlari ijrosini zudlik bilan ta'minlash maqsadida, Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi direktori o'rinbosari Aminov Rustam Anvarovich.

3. Davaktiv agentligi ishtirokidagi 16 ta korxonalarning 5-ilovaga muvofiq 44 nafar a'zolik o'rinlariga tanlov muddati 30 kunga uzaytirilsin.

4. Davaktiv agentligining Davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ munosabatlarni ta'minlash departamenti (Qurbonaliyev):

uch kun muddatda Davaktiv agentligi ishtirokidagi 15 ta korxonalarning kuzatuv kengashi tarkibiga g'olib deb topilgan nomzodlarni kiritish bo'yicha ko'rsatma xatlari yuborish hamda aksiyador (ta'sischi)larning umumiy yig'ilishida mazkur nomzodlarni davlat ulushi nomidan kuzatuv kengashi tarkibiga kiritish; o'ttiz kun davomida Axborot va jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi bilan birgalikda 16 ta korxonalarning kuzatuv kengashi tarkibidagi a'zolik o'rinlariga tanlov muddati uzaytirilganligi to'g'risida keng jamoatchilikni xabardor qilish, shu jumladan Davaktiv agentligining rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali keng yoritish choralarini ko'rsin.

5. Tanlovlarda nomzodlardan arizalarni qabul qilish 30 kun davomida amalga oshirilsin hamda arizalarni qabul qilishning boshlanish sanasi e'lon qilingan tanlovlar to'g'risidagi ma'lumotlar maxsus veb-portalga joylashtirilgan sana etib belgilansin.

6. Mazkur bayon ijrosini ta'minlash komissiya kotibi Sh. Sofarov zimmasiga yuklansin.

Komissiya a'zolari:

N. Xusanov
J. Nasirov
S. Qurbonaliyev
Sh. Oxunov
U. Gazyev
Sh. Sofarov

